

Gender stereotiplar va ularning jamiyatdagi o‘rni.

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti
Umumiy psixologiya kafedrasи o‘qituvchisi **D.M.Obidova.**

Annotatsiya: Ushbu maqolada gender stereotiplarning turlari,ijobiy va salbiy steriotiplar ularning tarqalishi va jamiyatdagi o‘rni,gender steriotiplarning oqibatlari ya’ni ruhiy salomatlik,ijtimoiy muammolar, professional cheklov larga olib kelishini,turli jabhalarga ta’sirini ko‘rib chiqamiz.

Kalit so’zlar: ijobiy steriotip,salbiy steriotip, gender steriotip, depressiya,diskriminatsiya,jinsiy identifikatsiya.

Har bir jamiyat jadal tarzda rivojlanishi jahon mamlakatlari qatorida tik turishi uchun ruhan, aqlan va jismonan sog’lom insonlardan tuzilgan o‘z xalqiga ega bo’lishi zarurdir.Jamiyatning har tomonlama salomatligini ta’minalash uchun esa zarur shart sharoitlar yaratilishi,munosib qaror va farmoyishlar ishlab chiqilishi zarurdir.Bu borada yurtimizda talaygina islohotlar amalga oshiriloqda.Bunga misol qilib tibbiy xizmat,ta’limga bo’lgan e’tibor hamda ruhiyatimiz shifokori bo’lgan psixologlarga e’tiborni aytishimiz mumkin.Ijtimoiy himoya markazlarining tashkil qilinishi va ushbu markazda psixologlar faoliyatiga kuchli urg’u berilganligi,mahallalardagi psixologlarning ishi yanayam jadallahganligi fikrimizning yaqqol dalilidir.

Gender steriotiplar inson hayotida juda katta ahamiyatga ega ekanligi hech kimga sir emas. Gender stereotiplar - jamiyatda shakllangan, erkaklar va ayollarga nisbatan qabul qilingan an’naviy qarashlar bo’lib, bu qarashlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning turli sohalarida o‘z ta’sirini ko’rsatadi. Ushbu stereotiplarni, insonlarning kasbidan tortib, oiladagi roliga qadar turli sohalarda topish mumkin. Ular shaxslar va guruhlar haqidagi qarashlarni shakllantiradi, xatti-harakatlarni belgilaydi va ijtimoiy munosabatlarga ta’sir qiladi.

Gender Stereotiplar Turlari

Ijobiy steriotiplar	Ayollar mehribon,nozik hilqat egasi Erkaklar kuchli,jasur,mard,qalqon.
Salbiy sterioptiplar	Ayollar zaif,rahbarlik ayollar uchun emas,ayollar yig’loqi,ayollarga ishonib bo’lmaydi, Erkaklar hissiz,ular yig’lamasligi kerak.

Ijobiy stereotiplar shaxslarning yaxshi sifatlarini ko'zda tutadi, lekin ular ham cheklovlar kiritishi mumkin. Salbiy stereotiplar esa kamsituvchi xulq-atvor va tushunchalarni kuchaytiradi.

Gender Stereotiplarning Tarqalishida Omillar

Ommaviy axborot vositalari	Filmlar,teleko'rsatuvlar. Reklama,ko'ngil ochar dasturlar. Ijtimoiy tarmoqlar(telegram,you tube,instagram)
Talim tizimi	Oila instituti, Maktab,maktabgacha ta'lif muassasasi.
Madaniy ananalar	Ananaviy ro'llar Qadimiy tushunchalar

Ommaviy axborot vositalari gender stereotiplarni kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi.Ko'p holatlarda katta yoshlilar (nafaqadagi insonlar) asosiy vaqtini oynai jahon oldida o'tqazadilar va o'zları bilmagan holda qanchadan-qancha steritipik fikrlarni miyalarida yanayam mustahkamlaydilar.Yoshlarga esa asosiy ta'lif va tarbiyani beruvchi kattalardir,bundan keyingi jarayon esa siz tahmin qilgandek zanjir ko'rinishida davom etadi. Oila,katta yosh avlod vakillari va ta'lif tizimlari yosh avlodning fikrini shakllantirishda asosiy ahamiyatga ega.

Gender Stereotiplarning Oqibatlari

Ruhiy salomatlik	Depressiya Tashvish
Ijtimoiy muammolar	Diskriminatsiya Kamsitish
Professional cheklovlar	Kasbiy cheklov O'z imkoniyatini yo'qotish

Gender stereotiplar shaxslar va guruhlar o'rtasida kamsitishga olib kelishi mumkin. Shuningdek erkak va ayollarning hislatlari haqidagi aniq tamg'adagi fikrlar, ularni ko'p jihatdan cheklashi mumkin.Bu ruhiy salomatlikni yomonlashtirishi, ijtimoiy muammolarni kuchaytirishi va professional imkoniyatlarni cheklashi mumkin.

Gender stereotiplar jamiyatda keng tarqalgan va ularning salbiy ta'sirlari ko'plab insonlarning hayotiga ta'sir qiladi. Ommaviy axborot vositalari, ta'lif va madaniy an'analar orqali gender stereotiplarni kamaytirish va ularga qarshi kurashish muhimdir. Buning natijasida shaxslarning jinsiy identifikatsiyasi va o'zini qabul qilish jarayonini yaxshilash mumkin.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.OBIDOVA, DILNOZA. «THE IMPACT OF THE FORMATION OF HIGH HUMAN EMOTION IN STUDENTS PEDAGOGICAL PSYCHOLOGICAL BASIS». Архив Научных Публикаций JSPI 1, no. 83 (ноябрь 16, 2020). просмотрено май 4, 2021. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7243.
- 2.Dilnoza Obidova, & Jumanova Nasiba. (2021). ANALYSIS OF THE ACTIVITIES OF HEALTH CARE INSTITUTIONS: PROSPECTS FOR THE APPLICATION OF PSYCHOLOGICAL KNOWLEDGE. JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 7(04), 258–260. Retrieved from <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/3091>
- 3.Abdurasulov, R. (2020). Сотрудничество консультанта-психолога со специалистами других отраслей. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(54). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4840
- 4.Dilnoza, O. (2020). МИЯ ЯРИМШАРЛАРИ АСИММЕТРИЯСИ–ШАХСНИНГ КОГНИТИВ ХУСУСИЯТЛАРИНИ БЕЛГИЛОВЧИ МУҲИМ ОМИЛСИФАТИДА. Журнал Педагогики и психологийи в современном образовании, (1).
- 5.Abdurasulov, R. (2020). Влияние психологической консультации на социальную жизнь. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(53). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4844
- 6.OBIDOVA, D. (2020). THE IMPACT OF THE FORMATION OF HIGH HUMAN EMOTION IN STUDENTS PEDAGOGICAL PSYCHOLOGICAL BASIS. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(83). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7243
- 7.Hendricks, M. L., & Testa, R. J. (2012). "A conceptual framework for clinical work with transgender and gender nonconforming clients: An adaptation of the minority stress model." *Professional Psychology: Research and Practice*, 43(5), 460-467.
- 8..Bockting, W. (2013). "Stigma, mental health, and resilience in an online sample of the US transgender population." *American Journal of Public Health*, 103(5), 943-951.

Research Science and
Innovation House